

**MATEMATIKA FANIGA YANGICHA YONDASHUV VA MATEMATIK SAVODXONLIK  
ASOSLARI**

**Yusupova Baxtigul Abduxakimovna**

*Samarqand viloyati Narpay tumani*

*64- umumta'l'm maktabi*

*Matematika fani o'qituvchisi*

Matematika fanining dolzarbliji shundaki, u orqali inson tafakkuri shakllanib, dunyoqarshi kengayib boradi. Mantiqiy va tanqidiy fikrlashlari ham rivojlanadi. Fandagi har bir mavzu o'quvchiga qiyinlik tug'dirmasligi uchun, har qanday misol va masalalarни hayotiy dalillar bilan to'ldirish kifoya. Shunday mahorat bilan dars o'taylikki, o'quvchi bu fanga nisbatan qiyin yoki zerikarli fan deb qaramasin.

Matematika inson hayotida kuchli rol o'ynaydigan ko'rsatkichdir. U orqali har bir inson nafaqat aqliy sog'lomlikka erishadi, balki ayrim miqdoriy chegirmalarni oldindan aytib berish qobiliyatiga ham ega bo'ladi. Bu borada matematik savodxonlik va matematik mulohaza insonga yordam beradi. Xo'sh, bu xususiyatlar insonda qanday hosil bo'ladi? PISA xalqaro baholash dasturining mohiyatida ana shu matematik savodxonlikni shakllantiruvchi elementlar mavjud. PISA savollari shunisi bilan ahamiyatlici, unda faqat bitta savol bilan yondashilmaydi. Unda ikki va uch savol beriladi. o'quvchi bu savollarni avval tasniflash, mazmuni, konteksti va aqliy faoliyat turi bo'yicha savollarga javob beradilar.

Yuqorida ko'nigmalarни o'quvchida hosil qilishda PISA dasturining ahamiyati katta. Matematik savodxonlik tushunchasi negizida turli kontekslarda berilgan real hayotiy muammolarni yechishda matematikadan unumli foydalanish tushuniladi. Shu bilan birga, matematik savodxonlik o'quvchidan matematik mulohaza yuritishni hamda hodisalarни tasvirlash, tushuntirish va oldindan ayta olish maqsadida matematik tushuncha, fakt, algoritm va vositalardan foydalanishni va muammoni yechishni talab qiladi.

Matematik savodxonlik bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida

ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U xodisalarни tafsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi.

Matematik savodxonlik har bir kishiga matematikani tushunishga, uning inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini anglashga, faol, mulohazali va ishning ko'zini biladigan zamonaviy kishi bo'lishga va qarorlar qabul qila olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Matematik savodxonlikni baholashga qaratilgan maxsus PISA sinov topshirig'inining sxemasi quyidagi uch jihatni o'z ichiga oladi.

1. Topshiriq tegishli bo'lgan matematika fanining mazmun sohasi, ya'ni bo'limlari.

2. Muammo mazmunini yoki konteksti.
3. Topshiriqni bajarishda o'quvchilar namoyish qilishi lozim bo'lgan aqliy faoliyat turi.

Matematik savodxonlik nafaqat matematikani qo'llab masala va misol yechishni o'rgatadi, balki matematik mulohaza yuritishni ham nazarda tutadi. Bu jarayonda o'quvchining aqliy faoliyati ham baholanadi. Matematik savodxonlik o'quvchilarning matematik mulohaza yuritish asosida berilgan hayotiy vaziyatdagi muammoni matematika tilida ifodalash, matematikani qo'llash, topilgan matematik yechimlarni berilgan muammoga nisbatan talqin qilish va baholash kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

PISA dasturi asosidagi baholash tizimining respublikamizda ilk marta o'tkazilatorganligi ham pedagoglar zimmasiga yuqori mas'uliyat yuklaydi. Avvalo, baholash jarayonlarini shaffof va ob'ektiv tarzda o'tkazilishini ta'minlash lozim.

Pedagog bu jarayonda PISA dasturi bo'yicha mukammal bilim va ko'nikmaga ega bo'lisi muhim. Chunki bu dastur bo'yicha tuzilgan masala va misoldagi biror xatolik o'quvchini chalg'itishi, fikrlarini chalkashib ketishiga sabab bo'lisi mumkin. Bitta topshiriqda uch yoki to'rtta savol jamlangan bo'lib, o'quvchilar bunda faqat o'zlariga tegishli bo'lgan qisminigina bajaradilar. Chunki topshiriqning boshqa savoli boshqa sinf o'quvchilari uchun mos bo'lisi mumkin.

Yana bir jihatni inobatga olish kerakki, PISA baholash dasturida "5" yoki "4" baholar qo'yilmaydi. Bunda savollar murakkablik darajasiga ko'ra o'quvchilar tomonidan berilgan javoblarning qay darajada to'liq ekanligiga qarab "javob to'liq qabul qilinadi", "javob qisman qabul qilinadi", "javob qabul qilinmaydi" tarzida baholanadi.